# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023-YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 74228-30-42**
**www.andstat.uz**

**Andijon viloyati**
**sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari**

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 33 786,0 mlrdso‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,1 % ni tashkil etdi.









| | mlrdso‘m | FHI. %da |
|---|---|---|
| Andijonsh. | 4 750,2 | 103,1 |
| Xonobodsh. | 1 384,5 | 102,4 |
| Oltinko‘l | 595,3 | 103,5 |
| Andijon | 663,3 | 110,1 |
| Baliqchi | 945,1 | 103,2 |
| Bo‘ston | 251,4 | 103,4 |
| Buloqboshi | 267,7 | 105,5 |
| Jalaquduq | 735,7 | 105,6 |
| Izboskan | 521,0 | 102,1 |
| Ulug‘nor | 265,0 | 107,2 |
| Qo‘rg‘ontepa | 819,3 | 95,3 |
| Asaka | 19 625,6 | 104,0 |
| Marhamat | 418,6 | 103,8 |
| Shahrixon | 901,9 | 105,7 |
| Paxtaobod | 488,1 | 88,2 |
| Xo‘jaobod | 1 153,3 | 101,4 |

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 56 221,7 ming so‘m, Xonobod shahrida 30 607,5 ming so‘m,Andijon shahrida10 086,7 ming so‘m hamda Xo‘jaobod tumanida 9 783,2 ming so‘mni tashkil etmoqda.











**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **33 011,2**mlrdso‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **97,7 %** ni, tashkil etdi.




2023-yilningyanvar-iyul oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asakatumani (58,1 %), Andijonshahri (14,1 %), Xonobodshahri (4,1 %), Xo‘jaobod (3,4 %) hamda Baliqchitumanlari (2,8 %)hissa-siga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tganyilningtegishlidavriganisbatanyuqoriFHI, Andijon (110,1 %), Ulug‘nor (107,2 %) hamdaShahrixon (105,7 %) tumanlaridakuzatildi.






## B seksiya

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **497,1**mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,5 %** ini tashkil etdi.



**Yanvar-iyul**

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 125,7*mlrd so‘m* |
| **2023-y.** | 497,1*mlrd so‘m* |

**FHI, %d**

| | |
|---|---|
| **2021-y.** | 92,1% |
| **2022-y.** | 121,8% |

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **33011,2**mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,7 %** ini tashkil etdi.

**Yanvar-iyul**

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 25 815,7*mlrd so‘m* |
| **2023-y.** | 33 011,2*mlrd so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 110,2 % |
| **2023-y.** | 120.8 % |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




2023-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 238,9 ming dona yengil avtomobil (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,3 %ga kamaygan), 25,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (68,0 % kamaygan), 21,7 ming tonna paxtadan ip mahsulotlari (26,2%ga kamaygan).










*Yanvar-iyul*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoatmahsulotlari | 2023-yilyanvar-iyul | 2022-yilyanvar-iyul | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan) - dona | **238913,0** | **244604,0** | **-5691,0** |
| Paxtadan yigirilgan ip - tonna | **21714,2** | **29427,0** | **-7712,7** |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna | **25611,3** | **80113,7** | **-54502,4** |
| Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna | **205,0** | **104,3** | **100,7** |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarishsohasining ulushi – 67,5 % (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), kiyim ishlab chiqarishiningulushi – 10,5 % (2022-yilningyanvar-iyuloylariganisbatanfizikhajmindeksi117,6 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 9,9 % (2022-yilningyanvar-iyuloylariganisbatanfizikhajmindeksi 101,0%), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishningulushi – 4,3 % (2022-yilningyanvar-iyuloylariganisbatanfizikhajmindeksi100,0 %)nitashkiletdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 %ni (2022-yilning yanvar-iyul oylarida – 13,8 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 69,1 % (2022-yilning yanvar-iyul oylarida - 38,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,6 % (2022-yilning yanvar-iyul oylarida - 29,2%) va quyi texnologiyalisi – 26,2 % (2022-yilning yanvar-iyul oylarida - 18,9 %)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 35,5 mlrdso‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1%ni tashkil etib,fizik hajm indeksi esa 44,7 % ni tashkil etgan.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 46,0 mlrdso‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,2 %ni tashkil etdi.O‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,2 % ni tashkil etgan.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,5 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 293,1 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,4 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1 427,5 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,4 % ni tashkil etgan.

## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlarishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 66,3 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyul oylaridamashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlarishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,1 % ni tashkil etgan.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,0 % ga oshgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 284,1 mlrdso‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 114,0 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,5 %, fizik hajm indeksi 4,6 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 22 295,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 64,9 % ni fizik hajm indeksi esa 141,6 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 156,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 420,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,5 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 147,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 340,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 60,2 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 109,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 233,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 105,5 % ni tashkil etgan.

**Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,** **D seksiya**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,7 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6% ini) tashkil etadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

**Yanvar-iyul** — **D**

| | Yanvar-iyul | FHI, % da |
|---|---|---|
| *2023-yil* | **190,7 mlrd so‘m** | **50,3 %** |
| *2022-yil* | **462,0 mlrd so‘m** | **119,6 %** |



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln kVt.s** | **540,3** | **460,8** | **-79,5** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **6,7** | **0,4** | **-6,3** |

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,0 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 %ini) tashkil etdi.

***2023-yil***

***2022-yil***

**Yanvar-iyul**

***FHI, %da***

| | Yanvar-iyul | FHI, %da |
|---|---|---|
| 2023-yil | **87,0 mlrd so‘m** | **147,6%** |
| 2022-yil | **60,6 mlrd so‘m** | **91,2 %** |




| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyul | 2023- yil yanvar-iyul | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy suv: Suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar - mlrd so‘m | **63,7** | **37,3** | **26,4** |
| Oqava-suvlarning shlami - ming so‘m, *mlrd so‘m* | **10,9** | **11,0** | **-0,1** |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 63,7 mlrd so‘m yoki 70,5 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava-suvlarning shlami xizmatlarda 10,9 mlrd so‘m hajm bajarilgan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 24 338,1 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 72,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 15,3 mlrd so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumani 77,6 %, Xo‘jaobod tumanida 4,0 % hamda Andijon shahrida 3,0 % ga to‘g‘ri keladi.



# Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to‘g‘ri kelib, 18 895,8 mlrd so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 77,6 %, Xo‘jaobod tumanida 982,9 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 4,0 % shuningdek, Andijon shahrida 738,1 mlrd so‘mlik iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste’mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.




**19 941,3** mlrd so‘m

*2022-yil yanvar-iyul*

**24 338,1** mlrd so‘m

*2023- yil yanvar-iyul*

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi**






# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Andijon viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7 290,3 ming so‘m bo‘lgani holda 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,5 % ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo‘yicha Asaka tumanida 54 131 ming so‘mga, Xo‘jaobod tumanida 8 337,5 ming so‘m, Xonobod shahrida 3911,5 ming so‘mga, Oltinko‘l tumanida esa 2 278,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




## Andijon viloyati

**6 038,4** ming so‘m

*2022- yil yanvar-iyul*

**7 290,3** ming so‘m

*2023- yil yanvar-iyul*



| | |
|---|---|
| 2022-yil | 143,0% |
| 2023-yil | 102,5% |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi**
**2023-yilning yanvar-iyul oylarida**
*jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13398,3 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (88,0%), Andijon tumani (86,3%), Baliqchi tumani (74,9,0%), Jalaquduq tumani (64,2%) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Xonobod shahri (31,5%), Andijon shahri (28,9%), Asaka tumani (1,8%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



*2023- yil 1- avgust holatiga*

## Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 845 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 5510 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1458 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,5 %) Andijon shahriga, 593 tasi (10,8%) Andijon tumaniga, 494 tasi (9,0 %) Asaka tumaniga, 413 tasi (7,5%) Xo‘jaobod tumaniga, 394 tasi (7,2 %) Shahrixon tumaniga to‘gri kelmoqda.




**2022- yil** — **677 dona**

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

**2023- yil** — **539 dona**



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

**2022- yil** — **9 686 dona**

**2023- yil** — **5 510 dona**